XORIJIY TILLARNI O'QITISHNING SAMARALI USULLARI (NEMIS VA ISPAN TILLARI MISOLIDA)

Sh. B. Aliyeva
O'zDJTSU "Xorijiy tillar" kafedrasi o'qituvchisi

O. Q. Achilov
"Xorijiy tillar" kafedrasi o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada xorijiy tillar o'qitilishining interfaol usullardan foydalanishning samarali vositalari haqida batafsil yoritilgan va tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tillar, usul, rivojlanish, salohiyat, bilim

EFFECTIVE METHODS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES (ON THE EXAMPLE OF GERMAN AND SPANISH)

S. B. Aliyeva
Teacher of the Department of Foreign Languages

O. K. Achilov
Teacher of the Department of Foreign Languages

ABSTRACT

The article discusses and analyzes in detail the effective means of using interactive methods of teaching foreign languages.

Keywords: languages, method, development, potential, knowledge

KIRISH

Yurtimiz mustaqilikka erishgandan so'ng, demokratik -huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lida bormoqda. Bu yo'lda qat'iy turish uchun ko'p chora tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Mamlakatimiz taraqqiyotining muhim shartlaridan biri esa kadrlar tayyorlash tizimining mukkammal bo'lishi va shaxsning har tomonlama rivojlanishidir. Ta'lim sohasida bo'layotgan har bir o'zgarish jamiyatimiz ravnaqiga ijobiy ta'sir qilishiga shubha yo'q. Mamlakatning intellektual salohiyatini oshirish, davlat ta'lim standarti talablariga javob bera oladigan, yetuk, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Qaysi sohada bo'lmasin bilimlarni mustaqil

ravishda egallashga intilish – talaba faoliyatining ta'lim muassasasidagi eng ajralib turadigan xususiyati, mustaqil o'qib, bilim orttirish asosi hisoblanadi. Ta'lim tizimida mustaqil bilim olish, nazorat qilish mustaqil ta'lim olishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Mustaqil bilim olishda avvalo, talabalarda mustaqil ishlashga, erkin, ijodiy faoliyat yuritishga va eng asosiysi mustaqil fikrlashga ehtiyojni shakllantirish lozim. Ta'lim jarayonida interaktiv metodlar innavotsion texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishning sabablaridan biri shu vaqtgacha a'nanviy talabalar faqat tayyor bilimlarni egallashga urgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyada esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga mustaqil urganib tahlil qilishlariga hato hulosalarni o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. Pedagog bu jarayonga shaxsning rivojlantirishi ,shakllanishi, bilim olish va tarbiyalanishga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yunaltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida talaba asosiy figuraga aylanadi. Shuning uchun oliy o'quv yurtlati malakali kasb egallarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari – interaktiv metodlar innavotion texnologiyalarni o'rni va roli benihoyat kattadir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bundan pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratiga oid bilim tajriba va interaktiv metodlar talabalarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Innovation texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar – bu jamoa bo'lib fikrlashdan iborat deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmunini tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarni oziga hosligi shundaki, ular faqat pedagok va talabalarning birligida faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bundan pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga hos husisiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi: talabaning dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi; talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bolishini ta'minlashi ; talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijobiy yondashishgan holda kuchaytirishi; pedagog va talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatrini tashkillanishi; shu o'rinda muammoli o'qitish texnologiyasida to'xtalib o'tsak.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Muammoli o'qitish bu takomillashgan va samarador o'qitish texnologiyasidir. Uning mohiyati, o'qituvchi tomonidan talabalarning o'quv ishlarida muammoli

vaziyatni vujudga keltirish va o'quv vazifalarini, muammolarini va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarini o'zlashtirish bo'yicha ularning bilish faoliyatini boshqarishni tashkil etadi. Darsni to'g'ri tashkil etish, turli o'yin va topishmoqlardan ham foydalanish yaxshi samara beradi. Nemis va ispan tili darslari misolida beradigan bo'lsak, masalan; nemis tilida "Yil fasllari" (Die Jahreszeiten) und ispan tilida esa (estaciones del año) mavzusi utilmoqda. Avvalo, talabalar xonaga kirishlari bilan ular uchun fan muhitini yaratib berishimiz kerak bo'ladi. Salomlashish, yangiliklar, uy vazifalarini so'rab bo'lganimizdan so'ng, yangi mavzu nomini aytmasdan turib, mavzuga yaqinlashtiruvchi misollar keltirish kerak. Masalan: nemis tilida Welche Jahreszeiten gibt es in einem Jahr? Welche Jahreszeit ist jetzt? Welche Jahreszeit gefällt Ihnen?, ispan tili misolida esa ¿Cuántos estaciónes hay en un año? ¿Que estación del año le gusta? ¿En qué estación del año estamos ahora? Talabalar mavzuga moslasha boshlaydi. Mavzuga doir yangi so'zlarni odatda talabalarga yodlash uchun beramiz. Agar ularga shu so'zlar tez aytish, topishmoq tarzida aytilsa, qiziqarli bo'ladi va o'quvchining o'zlashtirishi oson kechadi. Nemis va ispan tillarida fasllarga misol keltiradigan bo'lsak, masalan: Im Sommer ist kalt. Im Winter ist warm. Im Herbst ist reich. Im Frühling ist arm. Ispan tilida esa El verano es frío. El invierno es cálido. El otoño es rico. En primavera es pobre. Topishmoqni tarjima qilish jarayonida uni talaba oson yodida olib qoladi, shu bilan birga yil fasllarining nomlari nemis tilida(Winter-qish, Frühling-bahor, Sommer-yoz, Herbst-kuz) va antonim (kalt-sovuq, warm -iliq, reich-boy, arm-kambag'al), ispan tilida (verano – yoz, invierno – qish, otoño –kuz, primavera -bahor) va antonim (frío – sovuq, cálido –issiq, rico – boy, pobre –kambag'al) so'zlarni ham o'rganadi. Javob topish barobarida talaba topishmoqni bir necha bor o'qiydi hamda ixtiyorsiz ravishda xotirasida saqlab qoladi, mustaqil fikrlashni va topishmoqda keltirilgan so'zlar bilan boshqa gaplar tuzishni xam o'rganadi. Demak, topishmoqni tarjimasi: Yozda sovuq. Qishda issiq. Kuzda boy. Bahorda kambag'al – bu nima? Chuqur o'ylab, fikrlagan talaba bu topishmoqning javobi "Yer to'la" ekanini oson topadi. Bu usul o'qituvchidan ham, talabadan ham ijodkorlikni talab qiladi. "Yer to'la" so'zini tarjimasini topish uchun o'quvchi lug'atdan foydalanadi. O'ylaymizki, bu usul yaxshi samara beradi. Albatta, barcha mavzularda ham bu kabi topishmoq va tez aytishlarni topish mushkul. Lekin hammasi pedagogning mahorati va ijodkorligiga bog'liq. Bunday vaziyatlarda turli o'yinlardan ham foydalanish mumkin. O'yinlar turli maqsadlarga yo'naltirilgan bo'ladi. Ular didaktik, tarbiyaviy faoliyatini rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarida qo'llaniladi hamda o'z samarasini beradi. O'yin jarayonida o'quvchi o'zini erkin xis qiladi, o'ziga bo'lgan ishonchi va tilga qiziqishi ortadi. Yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalardan shunday xulosalarga kelish mumkin: 1. Ta'lim

jarayoni samaradorligini oshirish, ta’lim oluvchilarning mustahkam nazariy bilim, faoliyat, ko’nikma va malakalarini shakllantirish, ularni kasbiy mahoratga aylanishini ta‘minlash maqsadida o‘qitish jarayonida yangi pedagogik texnologiyadan foydalanish davr taqozosi hamda ijtimoiy zaruriyat sifatida kun tartibiga quyilmoqda. 2. Ta’lim jarayoniga ilg‘or pedagogik texnologiyani tadbiq etish kadrlar tayyorlashga yo’naltirilgan umumiy jarayon mazmunining sifat jihatdan o’zgarishini ta’minlaydi. 3. Yangi pedagogik texnologiya nazariyasi g‘oyalaridan foydalanish asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalash borasidagi ijtimoiy buyurtmaning bajarilish holatining sifat ko’rsatkichiga ega bo’lishiga olib keladi.

XULOSA

Yuqorida sanab o’tilgan texnologiyalarning barchasi o’ziga xos. O’qitish jarayonida bu texnologiyalardan foydalanib turlicha natijalarga erishish mumkin. Demak, har bir texnologiya o’qitish samaradorligini oshirishgaxizmat qiladi. Faqat texnologiyalarni dars jarayonida qo’llayotganda, ularni darning qaysi qismida foydalanish kerakligini bva qaysi qismida foydalansa ko’proq samara berishi mumkinligini aniqlab olish mumkin.

REFERENCES

1. Kurganovich, E. A., Anvarovich, E. S., Abdullayevich, Y. G., Xasanovich, U. X., Axtamkulovich, K. X., & Abdullayevna, Y. M. (2020). The distribution of training load among promising young gymnasts during the periods of the annual cycle. *Journal of Critical Reviews*, *7*(13), 1005-1007.

2.Абидов, Ш. У. (2020). Ёш футболчиларни техник-тактик харакатларини мусобақа шароитида бахолаш ва самарадорлигини аниқлаш. *Фан-спортга*, 17-19.

3. Бекназаров, Ш. Қ. (2021). Футболчиларнинг жамоадаги ҳужум ҳаракатларини тадқиқ қилиш. *Academic Research in Educational Sciences*, *2*.

4. Шаймарданов, Д. Б. (2021). Ёш футболчиларда анъанавий ва оптималлаштирилган техник тайёргарликка хос юкламалар хажмини махсус ҳаракат сифатларига таъсир этиш динамикаси. *Academic Research in Educational Sciences*, *2*.

5. Қутлимуратов, И. Х. (2021). Футболчиларнинг турли йўналишлардаги тўпни ошириб бериш ҳаракатларини ўрганиш. *Academic Research in Educational Sciences*, *2*.

6. Пўлатов, С. (2020). 14-16 ёшли футболчилар ҳужумларини ташкил қилишларида ҳажм ва сифат кўрсаткичларини таҳлили. *Фан-Спортга*, (3), 26-28.
7. Маманов, Ж. А., & Розиқов, Ж. М. (2021). Миллий менталитетнинг ёшлар маданиятига таъсири. *Academic Research in Educational Sciences*, *2*.
8. Ганиева, М. Ю., Фозилов, Х. К., & Муминов, А. Ш. (2019). Методы и средства развития и совершенствования силовых качеств гандболистов. In *Актуальные проблемы физической культуры и спорта* (pp. 147-149).
10. Сивохин, И. П., Огиенко, Н. А., Бекмухамбетова, Л. С., & Маткаримов, Р. М. (2019). Биомеханические аспекты совершенствования двигательных действий в спорте.
11. Khodjaev, A. Z. (2018). Improving Jerk Technique by Special-Auxiliary Exercises. *Eastern European Scientific Journal*, 19-26.
12. Arzikulov, M. U. (2018). Distributing Parameters of Training Loading and Reduced Funds for Preparing Weightlifter at Stage of Sports Improvement. *Eastern European Scientific Journal*, 14-18.
13. Норқулов, З. Ч., & Юсупов, М. (2019). Йиллик циклда оғир атлетикачилар машғулот жараёнининг тузилиши ва мазмуни. *Ёшлар орасида жисмоний тарбия ва спортни янада оммалаштириш йўллари мавзусидаги илмий-амалий анжуман*.
14. Makhmudov, K. (2020). Ways of Forming Intercultural Communication in Foreign Language Teaching. *Science and Education*, *1*(4).
15. Makhmudov, K. (2020). Innovative Cluster of Pedagogical Education: Common Goals and Specific Interests. *Academic Research in Educational Sciences*, (2).
16. kizi Jumanova, K. G., & ugli Makhmudov, K. S. (2020). Teaching Culture as a Tool to English Teaching Methodology. *Science and Education*, *1*(3), 591-594.
17. Ходжамкулов, У. (2019). Педагогический кластер-новый инновационный аспект. *Теория и практика современной науки*, (2), 41-45.
18. Khodjamkulov, U. N. (2019). Pedagogical Education Cluster as a Scientific and Pedagogical Problem. *Modern Education*, *10*, 12-17.
19. Ходжамқулов, У. Н. (2019). Педагогик таълим кластери илмий-педагогик муаммо сифатида (педагогик таълимни кластерлаштиришнинг зарурати). *Современное образование (Узбекистан)*, (10 (83)).
20. Khoshimova, D., Otajonova, D., & Khaldarchayeva, G. (2020). Modern Technologies in Teaching Foreign Languages. *Academic Research in Educational Sciences*, (3).